

.....

O‘ZBEK ZAMONAVIY SHE’RIYATIDA METAFORA VA RAMZLAR (*Erkin Vohidov she’rlari misolida*)

Feruza Xolova

Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik namoyandasi Erkin Vohidov ijodida metafora va ramzning poetik tafakkurni shakllantirish hamda badiiy mazmunni ifodalashdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shoirning mazkur badiiy vositalardan foydalanish mahorati milliy ruh, insonparvarlik, tarixiy xotira, axloqiy qadriyatlar va falsafiy mushohadani uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov, zamonaviy o‘zbek she’riyati, poetik tafakkur, metafora, ramz, poetik obraz, konseptual metafora, badiiy obraz.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida metafora va ramz poetik tafakkurning yetakchi vositalaridan biri hisoblanadi. Metafora orqali shoir voqelikni bevosita emas, balki ko‘chma, obrazli shaklda idrok etadi va o‘quvchiga yetkazadi. Obidjon Karimov metaforani poetik tafakkur asosi sifatida talqin qilib, u shoirning borliqni qayta yaratish qudratini namoyon etishini ta’kidlaydi. Metafora badiiy nutqqa ko‘pqatlamlilik, emotsional ta’sir va estetik chuqurlik bag‘ishlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotida poetik tafakkurning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan xarakterlanadi. Bu davr she’riyatida badiiy obrazlar tizimi murakkablashib, metafora va ramzlar oddiy tasvir vositasidan chiqib, fikrni yashirin, ko‘p qatlamli shaklda ifodalovchi konseptual birlikka aylandi. Aynan shu jarayonda Erkin Vohidov ijodi o‘ziga xos poetik maktab sifatida shakllandi. Shoir ijodida metafora va ramzlar nafaqat estetik vazifani bajaradi, balki inson, jamiyat va tarix o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni poetik modelga soladi. Shu bois, uning she’riyati ilmiy tahlil uchun boy material hisoblanadi.

Ramz esa metaforaga nisbatan kengroq umumlashma bo‘lib, muayyan obraz orqali falsafiy, ijtimoiy yoki milliy g‘oyani ifodalaydi. N. Mahmudov va D.

Xudoyberganova ta'kidlaganidek, o'xshatishlar va ramzlar milliy til tafakkurining mahsuli bo'lib, xalqning dunyoqarashi va estetik didini aks ettiradi. R. Qo'ng'urov tasviriy so'zlar haqidagi qarashlarida ramzni o'quvchini faol mushohadaga chorlovchi kuchli badiiy vosita sifatida baholaydi.

Metafora Erkin Vohidov she'riyatida tasviriylikdan ko'ra fikriy zichlikni oshirishga xizmat qiladi. Shoir metafora orqali oddiy hayotiy hodisani umumlashgan falsafiy tushunchaga aylantiradi. Masalan, "Vatan qadri" she'rida...

*"Chashma qoshida tiniq suv
Qadrini bilmas kishi,
Sayr etib gulshanda gulni
Ko'ziga ilmas kishi".*

Mazkur misrada "chashma qoshida" metaforasi insonlarning befarqligi, uning atrofidagi kimsalar va moddiyatni vaqtida qadrlamasligi, hamda barchasi uning uchun ekanligini anglab yetmasligi talqin etilgan. Bu metafora statik emas, dinamik xarakterga ega bo'lib, shoirning hayotga faol munosabatini ifodalaydi. Metafora shu tariqa shaxsiy holatdan chiqib, umumiy insoniy kechinma darajasiga ko'tariladi.

Ramz Erkin Vohidov ijodida alohida semantik yuklama kasb etadi. U ko'pincha milliy xotira, tarixiy jarayon va ijtimoiy bosimni ifodalovchi belgi sifatida ishlatiladi. Masalan:

*Senga baxtdan taxt tilarman,
Toledan boshingga toj,
Mulki husningga omonlik,
Toj-u taxtingga rivoj.*

Bu misralarda "toj, baxt, tole, mulki husn" so'zlari ramziy ifodalanib, bu yerda "toj" orqali shoir insonning ijtimoiy mavqeini, yitukligini, shaxsiy va ma'naviy barqarorligini ifodalaydi. "Baxt" ramzi orqali esa nafaqat moddiy balki, ruhiy va hissiy holatdagi baxtni ko'rsatgan. Ular orqali shoir insonning ma'naviy va moddiy yuksalishi, sabr-toqat, obro' va tinchlikka erishishini tasvirlaydi. Shu jihatdan ramz shoir poetikasida tarixiy hujjat vazifasini ham bajaradi.

Erkin Vohidov she'riyatining muhim xususiyati shundaki, metafora va ramz ko'pincha bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Metafora mazmunni jonlantirsa,

ramz uni umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Bundan tashqari, she'riyatida metafora va ramzlar milliy ruh, tarixiy xotira va insoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan. Quyidagi "ONA TUPROQ" nomli she'riga e'tibor qarataylik:

*Nega inson yerni qutlug' der,
Tuproqni ham sanar muqaddas?
Yo 'q, mo 'tabar emas asli yer,
Tuproq o 'zi tabarruk emas.
Dastlab o 'sha yer uzra odam
To 'kkanida halol manglay ter,
Gavhar undi ona tuproqdan,
Qutlug' bo 'ldi muazzam bu yer.*

She'r ritorik savol bilan boshlanib, an'anaviy qarashlar inkor etiladi. Yer va tuproq obrazlari dastlab muqaddaslikdan mahrum qilinadi. Bu inkor metaforik xarakterga ega bo'lib, shoir asosiy g'oyani keskinroq ifodalashga xizmat qiladi. Asarda "manglay teri" mehnatning, "gavhar" esa halol mehnat samarasi va ma'naviy boylikning metaforasidir. Tuproqning "ona" sifatida jonlantirilishi (personifikatsiya) vatan obrazini yanada kuchaytiradi.

*O 'z muborak tuprog' in inson
Yot nazardan asrab har nafas,
Uni quchib fido etdi jon,
Qoni bilan qildi muqaddas.
Yo 'q, mo 'tabar emas asli yer,
Qutlug' emas tuproq hech qachon.
Muborakdir inson to 'kkan ter,
Mo 'tabardir qutlug' toza qon.*

She'r davomida ter va qon ramzlari orqali insonning mehnati va fidoyiligi muqaddaslik mezonini sifatida ko'rsatiladi. Natijada shoir muqaddaslik manbai yer emas, balki insonning halol mehnati va vatan yo'lidagi qurbonligi ekanini falsafiy umumlashtiradi.

"Qoshing" she'rida esa oshiq qalbining ruhiy holati kuchli metaforalar orqali ochib beriladi.

*Qaro qoshing,
qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.
Qilur qatlimga qasd qayrab
Qilich qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb qushin qiynab,
Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.
Qarab qo'ygil qiyo,
Qalbimni kizdirsin quyoshing, qiz.*

“Qalam qosh”, “qiyiq qayrilma qosh” tasviriyl o‘xshatish bo‘lib, yor go‘zalligini nozik grafik obrazlar orqali ifodalaydi. Yor nigohining “qilich”ga qiyoslanishi mubolag‘ali metafora bo‘lib, muhabbatning halokatli jozibasini anglatadi. “Qalb qushi” inson ruhining erkinlikka intilishi ramzi, “qafas” esa ishq asirligi metaforasidir. She‘r oxiridagi “quyosh” obrazi yor mehri, umid va ruhiy najot ramzi sifatida talqin qilinadi.

Tong lavhasi” she‘rida bu yanada kuchayadi:

*Ufqlarga qo'yib guldasta,
Tog' ortidan ko'tardi-da bosh,
Pastga boqdi cho'qqidan asta
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.
Har nuqtaga sayqal berib u,
Vodiy uzra chizdi zar lavha.
So'ng quyosh deb imzo chekdi-yu,
Tongotar deb qo'ydi sarlavha.*

She‘rda tong manzarasi badiiy san‘at asariga qiyoslanadi. Quyosh “oltin qalam tutgan naqqosh” sifatida personifikatsiya qilinadi. “Guldasta”, “zar lavha” obrazlari tongni bayram va go‘zallik timsoliga aylantiradi. Quyoshning “imzo chekishi” ijodiy yakun ramzi bo‘lib, tabiat va san‘at uyg‘unligini ifodalaydi. Tong obrazi yangilanish, hayot va umid ramzi sifatida umumlashtiriladi.

Erkin Vohidov she‘riyatida metafora va ramzlar falsafiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Shoir hayot, vaqt, inson taqdiri kabi mavhum tushunchalarni

konkret poetik obrazlar orqali ifodalaydi.

“Kamtarlik haqida” she’rida bu yanada yaqqol namoyon bo‘ladi:

*Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shunday-chun
O‘par doim peshonasidan.*

Mazkur she’rda asosiy poetik mexanizm konseptual metafora hisoblanadi. Shoir kundalik hayotdagi oddiy predmetlar – choynak va piyola orqali murakkab axloqiy-falsafiy g‘oyani ifodalaydi. Bu usul adabiyotshunoslikda “maishiy predmet orqali axloqiy konseptualizatsiya” deb izohlanadi.

Choynak – tashqi ko‘rinishda baland, katta va “mag‘rur”. Piyola – kichik, past, ammo inson uchun zarur va muqaddas. Bu qarama-qarshilik metaforik asosda inson va kibr, mansab va kamtarlik, tashqi ulug‘lik va ichki qadriyat kabi tushunchalarni modellashtiradi.

*“Choynak” obrazi – kibr metaforasi
Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.*

Bu misrada choynak antropomorf metafora sifatida ishlatilgan. U mansabdor, kuchli, jamiyatda yuqori mavqega ega inson timsolidir. Ammo “egilar” fe’li markaziy semantik nuqtadir. Shoir shuni ta’kidlaydiki, haqiqiy ulug‘lik egila bilishda. Demak, choynak obrazi orqali kibr emas, balki kamtarlik orqali ulug‘lik g‘oyasi ilgari suriladi. Bu metafora Sharq axloqiy tafakkuri bilan uyg‘un bo‘lib, “kamtarlik komillik belgisi” konsepsiyasiga tayangan. “Piyola” ramzi inson va muqaddaslik timsoli

*Piyolani inson shunday-chun
O‘par doim peshonasidan.*

Bu yerda piyola oddiy idish emas, balki insonning o‘zi, aniqrog‘i, inson sha’ni, inson qadr-qimmat, inson ruhiy pokligi ramzidir. “Peshonadan o‘pish” esa, hurmat,

e'zoz, muqaddaslik belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa piyola obrazi axloqiy ustunlikning ramziy markaziga aylanadi. Shoir jamiyatda past ko'ringan, ammo aslida yuksak qadriyatga ega insonlarni shu obraz orqali ulug'laydi.

“G‘urur ostonasi” ramziy chegaraviy tushuncha.

Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam

O‘tma g‘urur ostonasidan.

Bu misrada “ostona” ramziy-chegaraviy tushuncha sifatida ishlatiladi. U, axloqiy me'yor, ma'naviy chegara, insoniy komillikning oxirgi nuqtasini anglatadi. Shoir g'ururni mutlaq inkor etmaydi, balki uni nazorat qilinishi zarur bo'lgan xavfli chegara sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv she'rni didaktik emas, falsafiy-ogohlantiruvchi darajaga ko'taradi. Muhim jihat shundaki, Erkin Vohidov bu she'rda ochiq nasihatdan qochadi.

Axloqiy xulosa, buyruq bilan emas, kundalik hayotdan olingan obrazlar orqali o'quvchining o'ziga kashf ettiriladi. Bu esa metafora va ramzning intellektual-estetik funksiyasi ustuvor ekanini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan she'rlar asosida Erkin Vohidov ijodida metafora va ramzlar tizimli va g'oyaviy jihatdan asoslangan holda qo'llanilgani ayon bo'ladi. Tuproq, ter va qon – vatan va fidoyilik ramzlari; quyosh va tong – hayot va yangilanish timsollari; qalb qushi va qafas – inson ruhiy kechinmalarining metaforik ifodasidir. Ushbu obrazlar shoirning milliy va umuminsoniy qarashlarini uyg'unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov zamonaviy o'zbek she'riyatida metafora va ramzlardan yuksak badiiy mahorat bilan foydalangan ijodkordir. Shoir she'riy obrazlar orqali o'quvchini estetik zavq bilan birga falsafiy mushohadaga chorlaydi. Metafora va ramzlar uning ijodida milliy ruh, insonparvarlik va tarixiy xotirani ifodalovchi yetakchi poetik vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov O. Metafora –poetik tafakkur asosi // Jahon adabiyoti. 8-son. 2014.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tilida o'xshatishlarning izohli lug'ati. –Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
3. Vohidov E. Saylanma. 1-jild, –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
4. Qo'ng'urov R. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. –Toshkent: O'zbekiston, 1966.

5. Vohidov E. Dilda ishq daryochadir—Toshkent: Ziyo, 2019.
6. Cho‘yanovna, J. S. (2025, October). “YARADOR UMID OTLARI” DOSTONIDA IJTIMOIIY MOTIVLAR TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 286-290).
7. Ibragimova, D. I. (2025). FACT AND INTERPRETATION IN THE REPRESENTATION OF HISTORICAL FIGURES. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 293-296.
8. Nusratov, B. (2025, October). BADIY-ESTETIK QARASHLARNING NAZARIY ASOSLARI HAMDA HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODI BADIYATI TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 392-396).
9. Nusratov, B. (2023). HIKOYA OBRAZINING NAZARIY KRITERIYLARI. ZAMONAVIIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 1(2).
10. Nusratov, B. THE FOLK ORIENTATION OF POETIC IMAGERY IN HALIMA KHUDOYBERDIYEVA’S LYRIC POETRY.
11. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.
12. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.
13. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE’S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
14. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.